

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASININ OSHIRISH
HUDUDiy MARKAZI

IJTIMOiy-IQTISODiy FANLAR METODIKASI KAFEDRASI

RAXIMOVA D.B.

**MILLIY G'OYA TURKUMIDAGI FANLARNI O'QITISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

modulidan uslubiy ko'rsatma

Samarqand — 2020

Tuzuvchi: **D.Rahimova** Samarqand VXTXQTMOHM
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi
kafedrası dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar: **K.Haydarov**– VXTXQTMOHM Ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.n.

M.Mirzaeva SamDU Fuqarolik jamiyati va milliy
g'oya kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatma hududiy markaz direktor huzuridagi kengaytirilgan yig'ilishining _2020___yil __ ___dagi __-sonli qarori bilan tasdiqlangan umumta'lim maktablarining Milliy g'oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg'usi, Milliy istiklol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitiladigan pedagoglar uchun tayorlandi. 35-bet.

Kirish

Modulning maqsadi: Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli isloxotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustaxkamlash, xavfsizlik va xuquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson xuquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta‘lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ruebga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Yangi sharoitlardan kelib chiqib, “Ta‘lim tugrisida”gi va “Kadrlar tayorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021 - yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayorlash, xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni - rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Umumiy urta ta‘lim maktablari Milliy g‘oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg‘usi, milliy istiqloq g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari) fanlar o‘qituvchilarining bilim va kasbiy ko‘nikmalarini Davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta‘lim - tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Bu uslubiy ko‘rsatma tinglovchilarga innovatsion ta‘lim texnologiyalarni chuqurroq o‘rgatishga yo‘l yo‘riq ko‘rsatadi. Shuningdek xorijiy ta‘limning ta‘lim tarbiyasini o‘rganib qiyosiy tahlil qilingan holda yaxshi xusiyatlarini ularning ta‘lim tarbiya jarayonida erishilgan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga erishadilar. Shu bilan birgalikda yangi milliy g‘oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg‘usi, milliy istiqloq g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari) fanlarini o‘qitishda yangi adabiyotlar bilan tanishadilar va dars jarayonida qo‘llaydilar.

Milliy g'oya turkumidagi fanlarni dasturning xususiyatlari va uning tadbiqi bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Pedagogka qo'yiladigan vazifalar; o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish; davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalar to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkurni shakllantirish;

umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsiplar yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

O'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olish;

o'quvchilarda vatanga sadoqat va milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish;

o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish.

Didaktik talablar:

o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishi;

matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

olingan bilimlar kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqliklarni ta'minlashga, amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan boyitilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi.

Ilmiy-metodik talablar:

fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlanishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

O'zbekiston xalqi mentalitetiga mos bo'lgan illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalanishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatadigan pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi;

kasb-hunarga yo'naltiruvchi matn va rasmlar, lug'atlar, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan (loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan) topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi.

Estetik talablar:

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sir o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibliigi ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi.

Gigienik talablar:

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, gigiena talablariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) "Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi haqida"gi umumiy texnik reglament talablariga mos bo'lishi.

Kutilayotgan natijalar: "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini amalga oshirish orqali o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, huquqiy madaniyat, keng dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat kabi fazilatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yaratiladi. Shuningdek bu uslubiy ko'rsatma pedagog kadrlarimizni dars o'tishida innovatsion pedagogik texnologiyalarda foydalanishga va uni amaliyotga tatbiq etishga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy g'oya turkumiga fanlarni o'qitish usullari: aqliy hujum, klaster, bumerang, munozara, blits-o'yin, FSMU texnologiyasi, muammoli vaziyat va boshqa yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mavzular mohiyatini tushuntirish, dinshunoslik faniga oid tarixiy va falsafiy atamalarga izoh berish; jonli muloqot, plakatlarni, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va

badiiy adabiyotlar, shuningdek, axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda mavzular mohiyatini o'quvchilarga yetkazish;

-o'rganish turlari: og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha yangi va keng qamrovli manbalar asosida konspekt tayyorlash va hokazo;

-o'rganishning yo'nalishlari: bugungi kun talabi asosida yangi va keng qamrovli manbalar, adabiyotlar asosida boyitilgan ma'ruza matni, Milliy g'oya turkumidagi fanlarni faniga oid slaydlar;

- o'rganish manbalari: sinflarni texnik vositalar bilan ta'minlash, texnik vositalardan unumli foydalanish;

-monitoring va baholash: og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov va hokazo.

Pedagogik vazifalar:

-o'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'rni bilan tanishtirish;

-o'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv adabiyotlari manbalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish;

-fan sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirishning umumiy sxemasini tasniflash;

-o'qitish texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari tavsiflash.

O'quv faoliyati natijalari:

-fanning nomlanishi va vazifasini belgilash;

-faoliyatdagi alohida usul va tashkiliy jihatlarni ochib berish;

-o'quv faning umumiy va tashkiliy tuzilmalari to'g'risida atroflicha tushuntirib berish;

-nazariy bilimlarning to'laligi, tizimiyligi, amaliyligi;

-amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;

-kursning asosiy mazmini, yo'nalishi bo'yicha ularning yetarli bilimlarga ega bo'lishi;

Mavzularning xronologik xaritasi.

1. O'quv mashg'ulotlariga kirishish – 5 daqiqa.

O'qituvchining faoliyati: tayyorgarlikni tekshirish, fanga doir kerakli manbalar haqida ma'lumot berish, o'quv rejasi va adabiyotlar bilan tanishtirish.

O'quvchining faoliyati: -15 daqiqa. Darsga tayyorgarlik ko'rish, maruza matni va mavzuga oid rejalar shuningdek, o'quv-uslubiy adabiyotlar manbalar, ko'rgazmali qurollar va boshqalar bilan tanishishdan iborat.

- Uslublar, shakllar, usullar: yo'riqnoma, oldindan so'rash, topshiriq kartochkalar.

2-bosqich. Asosiy qism – 20 daqiqa.

O'qituvchi faoliyati: mavzu mohiyatini yoritishga kirishish, o'tgan mavzular bilan uzviy bog'lash, maruza matni asosidagi tarqatma materiallar tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olish zarurligini ta'kidlash, mavzu rejalarini har birini alohida

tushuntirish, aqliy hujum, klaster, bumerang kabi usullardan foydalanish, mantiqiy izohlar berish, ma'ruza matni o'qish jarayonida slaydalar orqali atroflicha tushunchalar berish.

- O'quvchining faoliyati: mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlab borish, ma'ruzani diqqat bilan eshitish, muhim joylarini prospekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo'yicha savollar berib aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish.

- Uslublar, shakllar, usullar: oldindan so'rash, blits-so'rov, aqliy hujum, bumerang kabi usullardan foydalanish.

3-bosqich.Yakunlovchi qism – 5 daqiqa.

- O'qituvchi faoliyati: ma'ruzani yakunlash, talabalar diqqatini ma'ruzani yakuniy xulosasiga jalb etish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan o'quvchilar faoliyatini baholash, joriy mavzu yuzasidan mustaqil ish mavzusini berish.

- O'quvchilarning faoliyati: o'tilgan mavzuni tahlil qilish va xulosa chiqarish, dars davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tushunib yetish, mustaqil ta'lim mavzularini yozib olish.

- Uslublar, shakllar, usullar: guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

Dars o'tish usuli va vositalari: axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni (bumerang, klaster, skarbey, aqliy hujum va boshqalar)ni qo'llash, ko'rgazmali qurollar, elektron darsliklar, tarqatma materiallardan foydalanish.

“Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” - metod, “study” - muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta'lim oluvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir; ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy taxlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalar bayon etilgan.

“Baliq skeleti” grafik organayzeri

Ta'lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

“Insert” grafik organayzeri

Yangi mavzu buyicha o‘quvchi (ta‘lim oluvchi)larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga “Munosabat” metodi

Texnologiya ta‘lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu buyicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini uz fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma‘lum jarayon (voqelik, hodisa)ning

kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida ta‘lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqq olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta‘lim oluvchilarga o‘zlarida ijobiy fazilatlarini ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

“Nilufar guli” grafik organayzeri

Texnologiya didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylanalar)larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

“T-jadval” grafik organayzeri

Grafik organayzertayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jixatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida

“FSMU”strategiyasi

Grafik organayzer ta‘lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy muloxazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), baxslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta‘lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
	Ta‘lim metodlari				
	Ta‘lim vositalari				
	Ta‘limni tashxis qilish				

“Qarama-qarshi munosabat” strategiyasi

Strategiya uz mohiyatiga ko‘ra ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo‘lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruxlarga ajratish imkonini beradi.

Ta‘lim oluvchilar faoliyatining samaradorligini ta‘minlash uchun ularning unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta‘lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

“Innovatsion pedagogik texnologiyalarni darsda foydalanish”

Afzalliklari	Kamchiliklari
“qaytar aloqa”ning ta’minlanishi	ko’p vaqt talab etilishi
motivatsiyaning yuqori darajada bo’lishi	o’quvchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o’tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	Ob’ektiv baxolashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko’nikmasining takomillashishi	o’qituvchining uzidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko’nikmasiga ega bo’lishining talab etiladi
O’z-o’zini va boshqalarni baxolash ko’nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo’lishi
mustaqil fikrlash qobiliyatining oshishi	qaytar aloqaning ta’minlanishi
XULOSA	

Milliy g’oya targ’ibotining institutsional tizimi

Oila	Maxalla

Milliy g’oya turkumiga kiruvchi fanlarga oid yangi adabiyotlar tahlili.

Bugungi kunda milliy g’oyaning hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o’rganish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ’ib etish nihoyat, undagi bilim va qarashlar asosida yangicha e’tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Fanning asosiy vazifasi o’quvchilarda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida go’yaviy bo’shliq vujudga kelishiga yo’l qo’ymaslik, ularni ajdodlarning shonli kechmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

“Milliy istiqloq g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani o’qitilishi uchun qo’yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, ya’ni darsdan ko’zlangan maqsad hamda o’quvchilar

imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o‘tilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jixozlarni belgilash va qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish, AKT foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratish zarur.

“Milliy istiqlol go‘yasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi “Odobnoma” (1-4 sinflar), “Vatan tuyg‘usi” (5-6 sinflar), “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari” (7-9 sinflar) fanlarini o‘qitish bo‘yicha interfaol usullarni qo‘llash, amalda qo‘llanilayotgan va yangi yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarning mazmun-mundarijalarini o‘rganish va tahlil etish zarur.

“Odobnoma” fani bo‘yicha dars berish jarayonida o‘qituvchilar har bir mavzuga ijodiy yondoshgan holda ilg‘or pedagogik texnologiya elementlaridan o‘rinli foydalanib, noan‘anaviy, ya‘ni suxbat, baxs-munozara, o‘yinlar, sayoxat, davra suxbatlari tarzida tashkil etish lozim.

Dars mavzularini bayon etishda tarbiyaviy aamiyatga ega bo‘lgan muqaddas manbalarimizdan, ertak, rivoyat, hikoyat, maqol va hikmatlardan, buyuk ajdodlarimizning boy meroslaridan, hozirgi zamon bolalar shoiri va yozuvchilarining istiqlol davrida yaratgan asarlaridan unumli foydalanish lozim.

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishning samaradorligini ta‘minlash uchun quyidagi asosiy talablarga amal qilish lozim.

— Milliy istiqlol g‘oyasining insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida mustaqillikning muqaddas qadriyat ekanligi, uni asrab-avaylash har bir kishining muqaddas burchi ekanligini o‘quvchilarning qalbi va ongiga singdirish;

— Yoshlar ongida “Eng buyuk jasorat - yuksak ma‘naviyat” ekani xaqida to‘lik tasavvurni shakllantirish;

— Yoshlar orasida millatchilikning har qanday ko‘rinishlari paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ta‘lim-tarbiya jarayonida umuminsoniylik ustuvorligi tamoyillariga og‘ishmay amal qilishga alohida e‘tibor berish;

Dars ishlanmalarini tayyorlash va mashg‘ulotlarni olib borishda pedagogik-psixologik me‘yorlarga jiddiy ahamiyat berish, bunda o‘quvchilarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini e‘tiborga olish;

Mazkur fanning o‘qitilish jarayonini kuzatish, tahlil qilish asosida uni ilg‘or shakl va usullar bilan takomillashtirib borish.

Bu borada ilg‘or ijodiy tajribalarni ommalashtirish, ushbu tajribani ma‘lum tezis sifatida nashr etish, ya‘ni “ilg‘or tajribalar” rukni ostida joylarga etkazilishi tavsiya etiladi.

Shuningdek, mazkur fanlar buyicha darslarni samarali tashkil etishda hamda pirovard amaliy natijasini ko‘rishda o‘qituvchi, uquvchi, ota-ona, maxalla qolaversa keng jamoatchilikning fikrdoshligi, talab birligi, umuman hamkorligi masalalariga keng o‘rin berilishi maqsadga muvofiqdir.

2017 yilda 10 jilddan iborat “O‘zbekiston madaniy merosi dunyo to‘plamlarida” kitob-albomi nashr qilindi. Unda dunyo muzeylarida

saqlanayotgan O'zbekistonning qadimiy noyob durdonalari aks ettirilgan. Jumladan: 1-jildda "Sharq davlat muzeyi", 2-jildda Rossiya etnografiya muzeyi, 3-jildda "Davlat Tretyakov galereyasi", 4-jildda "O'zbekiston gilamlari va kashtalari dunyo to'plamlarida", 5-jildda "Rossiya milliy kutubxonasi", 6-jildda "Glinka nomidagi Butun Rossiya musiqiy madaniyat muzeylari birlashmasi", 7-jildda "Sharq qo'lyozmalari instituti", 8- jildda "Davlat ermitaji", 9-jildda "Davlat tarix muzeyi", 10- jildda O'zbekiston gilamchiligi-asrlar osha saqlangan an'analar" deb nomlangan. Bu kitob bilan tanishgan har bir o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlar va noyob durdonalardan faxr hissi uyg'onadi.

2017 yilda Sultonmurod Olim tomonidan nashr qilingan "Oila va jamiyat yoxud mikrojamiyat va makrooila" nomli kitobida "Oila, jamiyat va fuqaro mas'uliyati", "Oila - mikrojamiyat, jamiyat - makrooila", "Suyanchiqlarimiz" , "Duo ustunmi yo "omin"? (otaga munosib o'g'il hikoyasi)

"Oila va kitobxonlik", "Volidaynnoma" kabi bulimlardan iborat bo'lib, ularda bugungi kunda oilalarda sodir bo'layotgan voqealarning statistik tahlili, turli xayotiy voqea va hodisalar, oiladagi munosabatlar tug'risida ma'lumotlar berilgan. Muallif:- "Odam umrining oxirigacha ota-onasidan olgan tarbiya bilan yashaydi"- degan g'oyani beradi. Bu bilan farzandlar taqdiriga befarq bo'lmaslikni aloxida ko'rsatib o'tadi. O'zbek xalqining oila borasida yuksak madaniyati, ming-ming yillik merosi bor. Biz ana shu qadimiy va muqaddas milliy an'analarga, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. - T.: "Uzbekiston", 2017.48 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "Uzbekiston". - 2017.- 102b.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "Uzbekiston", 2017. - 488 b.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008.

5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat kilish - eng oliy saodatdir. -T.: "Uzbekiston", 2015. - 302 b.

6. Buxoro va Xiva shaxarlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium tezislari. - T.: 1997.

7. Samarqand shaxrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shaxrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. -Samarkand -2007;

8. O'zbekiston poytaxti -Toshkent 2200 yoshda. Toshkent shaxrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. - T.:2009

9. Sulstonmurod O. Oila va jamiyat yoxud mikrojamiyat va makrooila. - T.:2017.

10. O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida. Albom. 1 -10- T.:2017.

Mavzu: Milliy g'oya turkumidagi fanlarni innovatsion o'qitilishiga doir xorijiy tajribalar

REJA:

2.1. Milliy g'oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitilishida xorijiy tajribalardan foydalanish: dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi.

2.2. Milliy g'oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitishda xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili: O'zbekiston va jaxon.

2.3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarining institutsional tizimi, uning ijobiy jihatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: xorijiy tajriba, _ dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi, xalqaro tajribaning siyosiy tahlili, Uzbekiston va jahon, targ'ibot ishlari, institutsional tizim, institutsional tizimining ijobiy jihatlari

Milliy g'oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish: dunyoning rivojlangan mamlakatlar tajribasi.

AQShda o'qituvchilik kasbi eng ommaviy va nufuzli kasblardan hisoblanadi: AQShda 3,4 ta boshlag'ich va o'rta maktab o'qituvchilari bor. AQShda 1400 dan ortiq O.O'Yurti o'qituvchi tayyorlash dasturlariga ega. Davlat universitetlarini moliyalashtirish ta'lim uchun to'lovlar va subsidiyalar orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik fakultetlar 50 ta shtatdan 48 tasida akkreditatsion sistemalardan o'tadi, unda quyidagilar hisobga olinadi:

- 1) bulg'usi o'qituvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalari;
- 2) diagnostika, monitoring va baholash sistemasi;
- 3) pedagogik tajriba;
- 4) madaniy saviya;
- 5) o'qituvchilar tarkibining kvalifikatsiyasi, mexnat sifati va kasbiy maxorati;
- 6) fakultetni boshqarish va material resurslar.

Standartlar har 7 yilda chiqiladi.

Pedagogik faoliyatga qo'yilgan umumiy standartlar barcha fanlar bo'yicha hamma shtatlarda bir hil.

AQShning deyarli barcha nufuzli OUYuda: University of Michigan at Ann

Arbor, San Jose State University, St. Cloud State University, Emporia State University, Northwestern State University Natchitoches, California State University, University of North Carolina, Northern Arizona University, Montclair State University va b.pedagogik fakultetlar mavjud. Ularga tanlov juda katta bo'lib, har bir uringa 20tadan abituriyent to'g'ri keladi.

Magistatura tizimida diplom oldi amaliyoti keng qo'llaniladi.

Yaponiyada o'qituvchi faqat o'qitish emas, balki bolalarning tartibi uchun ham, vaqtini o'tkazishi va boshqa ko'plab masalalarga ham mas'uldir. Bular "o'qitish" tushunchasiga emas, ko'proq ota-onaning vazifalari sirasiga kiradi. Shu bois ham Yaponiya hukumati OUYulari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi.

Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, davlat maktabi o'qituvchisi bo'lish uchun yapon fuqarosi uqituvchi diplomini olishi kerak va o'qituvchilikka tayinlash imtixonidan o'tishi kerak. Yaponiya o'qituvchilar oyligi mahalliy xokimiyat organi xodimlari oyligidan ko'p bo'lgan davlatlardan biridir. Yaponiyada katta o'rta maktablarning kunduzgi (uqish-3yil), kechki va sirtki (o'qish 4 yil) turlari bor. Kechki va sirtqi maktabni bitirganlik haqidagi guvoxnomasi xuddi kunduzgi katta maktabnikiday balsa xam, 95% uquvchilar maktabning kunduzgi bo'limida taxsil olishadi. Katta maktablarga qabul qilish kichik maktabni tugatganlik va kirish imtixonlari natijalari bo'yicha konkursdan o'tganligi xaqidagi xujjat asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga ko'ra, katta o'rta maktabda bilimlarni baholashda OUYu tizimidan foydalaniladi. Bu har bir o'quvchi 12 yillik o'rta ta'limni tugatganligi haqida guvoxnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig'ishi lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamonaviy yapon adabiyotini har bir kursini o'rganish natijalari buyicha 4ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi buyicha 2 kredit, klassik til buyicha - 2 kredit.

Yaponiyada davlat universitetlariga to'liq o'rta maktabni bitirib kirish mumkin. Qabul 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "Yutuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"ni topshiradilar". Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtixonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ballar olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtixon topshiradilar. O'quv jarayonida umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib uqitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Nazariy jihatdan umumilliy sikl tugagandan so'ng talaba mutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishi mumkin. Aslida, bunday holatlar ham uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Oxirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi. Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan. Oliy ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari buyicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va

veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: Talaba OUYuda 4 yillik o'qishini 8 yil o'qish huquqiga ega, ya'ni o'zlashtirilmagan talabalarni talabalar safidan chiqarish mumkin emas. Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi. Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zacht birligidan iborat bo'lgan dastur buyicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtixonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi.

Xitoyda oliy ta'lim tizimi o'z ichiga universitet, kollej va oliy kasbiy maktablarni oladi, hamda o'zining nufuziga ko'ra bir necha ierarxik kategoriyalarga bo'linadi. Maktab bitiruv imtihonlarida olingan ballarga ko'ra bitiruvchilar oliy o'quv yurtlarining yuqori yoki quyi toifalariga nomzod bo'la oladilar. Xitoy universitetlariga kirish qat'iy raqobat sharoitida o'tadi: ba'zi universitetlarda bitta uringa 200-300 kishi to'g'ri keladi. Xitoyda, xuddi G'arb davlatlaridagi kabi uch bosqichli standart tayyorlov bosqichi mavjud. Bular: bakalvriat – o'qish muddati 4-5 yil. Bu bosqichni tugatganlar "Bakalavr" maqomi bilan tugallangan oliy ta'lim oladilar. Magistratura – o'qish muddati 2-3 yil. Doktorantura – o'qish muddati 2-3 yil, ba'zan 4 yil.

Oliy ta'lim Bolon'ya tizimi asosida tuzilgan, lekin Xitoy bu tizimda ishtirok etmaydi. Aspirantlar uchun ta'limning ikki bosqichi mavjud: aspirantura va doktorantura.

Aspirantlar va doktorlarga turli talablar qo'yadi. Kandidatlar (nomzodlar) Vatanni sevish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, bitta chet tilini mukammal bilishi va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bora olishi lozim. Aspiranturada o'qish muddati 2-3 yil. Doktorlarga talablar hozirgi aspirantlarga qo'yilgan talablardagiday, faqat farqi shundaki, doktorlar ikkita chet tilini bilishlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi lozim.

O'qitish shakliga ko'ra aspirantlar ishlab chiqarishdan uzilgan holda va ishlab chiqarishdan uzilmagan holda olib boriladi.

Oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifalari yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, fan, texnika va madaniyatni rivojlantirishdir. Bunga ko'ra 100 ta muhim oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan zarur fanlar va mutaxassisliklar qatorida o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va xo'jalik faoliyatlari eng yuqori darajasiga chiqishi kerak.

Keyingi yillarda iqtisodning modernizatsiyalash talablarini to'liq qondirish maqsadida o'quv mutaxassisliklari ro'xiyati qayta ko'rib chiqiladi; moliya va iqtisodiyot, siyosat va xuquqiy fanlar, iqtisodiyot boshqaruvi, mashinasozlik, arxitektura, elektronika, EXM, engil oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatiga urg'u beriladi.

Xitoyda 2 ming O.O'Yurtlari mavjud. Birinchisi Pekinda joylashgan Tsinxua universiteti kabi politexnik universitetlar, ikkinchisi Xefey shaxridagi Ilmiy-texnika universiteti kabi oliy o'quv yurtlaridir. Bularga ko'plab texnik va tabiiy fakultetlardan iborat oliy o'quv yurtlari, hamda tor bitta soha texnik institutlari kiradi.

Umumiy sohalaridagi universitetlar 2 ta yo'nalishdagi fakultetlarga ega: gumanitar va aniq. Gumanitar fakultetlar til, adabiyot, tarix, falsafa, iqtisodiyot, xuquqshunoslik va boshqa fanlarga asoslangan. Aniq fanlar yunalishi: matematika, fizika, ximiya, biologiya, geografiya, geologiya, radioelektronika va boshqa fanlarga asoslangan. Umumsoha universitetlariga Pekin, Nankay (Tyan'zin shaxri) va Fiden (Shanxay shaxri) universitetlari misol bo'la oladi. Davlat oliy o'quv yurtlariga qabul yagona reja asosida amalga oshiriladi. 2007 yilgi statistika ma'lumotlariga ko'ra oliy o'quv yurtlariga aholining 23 % topshiradi. Ta'lim organlari tomonidan boshqariladigan qabul komissiyalari, umummilliy va mahalliy bosqichlarida shakllanadi. Institutlar va fakultetlar imtixonlar natijalariga ko'ra layoqatli abituriyentlarni ularning xoxishiga ko'ra qabul qiladilar. Bazaviy oliy o'quv yurtlari eng yaxshi talablarni tanlab olish imkoniyatiga ega. Davlat bitiruvchilariga yagona reja asosida ish beriladi. Umumsoha oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 4 yil. Ba'zi sohalar, jumladan, tabiiy fanlar, texnik, tibbiyot buyicha - 5 yil. Tor sohali oliy o'quv yurtlarida o'qish qisqa muddatli bo'lib, 2-3 yilni tashkil etadi. Bitiruvchilarga bakalavr darajasi beriladi. Aspirantlarni tayyorlash 2 qismga bo'linadi: magistr ilmiy darajali mutaxassis va fan doktori ilmiy darajali mutaxassis.

1- kategoriyadagi aspirantlar yoshi 40-dan oshmaydi, o'qish 2-3 yil davom etadi. Ikkinchisi - 45 yoshdan oshmaydi, o'qish muddati 3 yil.

Xitoyda oliy ma'lumotga ega bo'lish juda ham obro'li sanaladi. Milliy kadrlar tizimi orasida ta'lim eng etakchi o'rinni egallaydi. Oliy ta'lim olishga akademik profildagi o'rta maktab bitiruvchilari va maxsus texnik maktab bitiruvchilari xaqli. Maktab bitiruv imtixonida to'plangan ball natijalariga ko'ra oliy ta'limga kirish imtixonlariga kiritiladi.

Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun abituriyent 7 ta fan buyicha maxsus imtixon topshiradi.

Xitoyda pulli oliy ta'lim muassasalari ko'p, lekin shartnoma asosida o'qishga kirish ham juda qiyin. Iqtidorli yoshlar uchun tekin o'qish imkoniyati bor. Undan tashqari, ba'zi fanlarda talaba ishlagan muassasa o'qish uchun pul tulaydi. Iqtidorli talabalar davlat stipendiyasi yoki tashkilot va muassasa subsidiyalari ko'rinishidagi imtiyozlarga ega.

Qisqa muddatli tor sohali oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 2-3 yil. Bu o'quv muassasalari talabalarni sanoatning turli sohalarida ishlash uchun o'rta bug'inda diplomli mutaxassislardir.

4- yillik dasturli bakalvriat kollejlari maxsus texnik va oddiy o'rta maktab bitiruvchilarini qabul qiladi. O'qish tugagach, bitiruvchilarga mutaxassislik bo'yicha diplom beriladi yoki bakalavr darajasi beriladi.

O'tgan davirlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1978-yildan keyin qayta qu'rish orqali ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimi shakllandi. Oliy o'quv yurtlari soni 1978 yil 598 ta bo'lsa, 1998 yil 1002 taga etdi. Hozirgi kunga kelib, bu ko'rsatkich yanada oshdi. Oliy ta'lim tizimi boshqaruvini uzluksiz chuqur isloh qilish natijasida oliy o'quv muassalarining masshtabi kengaydi, ta'lim samaradorligi sezilarli oshdi. Turli mutaxassisliklar bo'yicha bitiruvchilar soni

tenglashtirildi, mutaxassisliklar tizimi optimallashtirildi. Buning hammasi har yili ko'p sonli yuqori malakali mutaxassislarni tayorlash imkonini beradi.

Keyingi yillarda yuqori va yangi texnologiyalar bilan shug'ullanadigan oliy ta'lim qoshidagi muassasalar keng rivojlandi.

Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimining tasdiqlanishi va xalq xojaligining barcha sohasini isloh qilishni chuqurlashishi ta'sirida yoki boshqaruv tizimini oliy o'quv muassasalari bilan almashtirish oliy ta'limni butkul isloh qilishda asosiy nuqta bo'ladi. Oxirgi yillarda oliy ta'limni yuritish mexanizmi, moliyalashtirish usullari, kadrlarni boshqaruv tizimi va taqsimot tizimini qayta qurishning samarali natijalari ko'zga tashlanadi.

Talabalarni o'qishga qabul qilishi tartibi va bitiruvchilar taqsimotida ham ulkan siljishlar bo'ladi. 1997 yildan o'qishga qabul qilishning talabalarni toifalarga ajratuvchi eski tartibi bekor qilindi.

Hozir barcha talabalar bir xil tartibda o'qishga qabul qilinadilar va o'qishga pul to'laydilar. Moliyaviy qiyinchilikni boshidan kechirayotgan talabalarga bank krediti ajratilib, stipendiya beriladi.

Bitiruvchilarni ishga joylashtirish "ikki tomonlama tanlov" ya'ni "bitiruvchi va ish beruvchi tashkilot" prinsipi asosida amalga oshiriladi. Barcha Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari davlat siyosatiga binoan o'zlari mustaqil ish topadilar, o'qishdan keyin ishga joylashishi xaqida kontrakt tuzgan bitiruvchilar bundan mustasno.

Aspirantura ham o'tgan davrlarda katta yutuqlarga erishdi. 1949-yilga qadar yuqori malakali Xitoy mutaxassislari asosan chet ellarda tayyorlanardi. Shu yilga qadar bu oliy o'quv yurtlari atigi 200dan ortiq magistr tayyorlagan, birorta fan doktori bo'lmagan. Lekin 1978 yildan keyin 63 ming kishi aspiranturaga imtixon topshirib, 10 mingi konkursdan o'tdi. Faqat 1998 yilning uzida 8957 ta tadqiqotchiga doktor ilmiy darajasi berildi, 38051 ta kishi magistr bo'ldi.

Xitoy o'zining Oliy o'quv yurtlariga chet ellik talabalarni qabul qiladi, o'z talabalarini chet elga o'qishga va malaka oshirishga jo'natadi. Birgina 1998 yil Xitoy 164 ta davlatdan 43084 talabani o'qishga qabul qildi. Xitoydan chet elga o'qishga ketgan talabalar soni 23 mlnni tashkil etdi. Xitoy Oliy o'quv yurtlari 3/2 qismi davlat tasarrufida, qolgan 1 qismi xususiy bo'lib, xozirgi kunda 3 mingta Oliy o'quv yurtlarida 20 million talaba tahsil olyapti.

Xitoy oliy o'quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha jahonda etakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Institut va universitetlarda ta'lim muddati 4-5 yil qilib belgilangan bo'lsa, faqatgina tibbiyot institutining talabalari ixtisosliklariga qarab 7-8 yilgacha bilim oladi. Yuqori oliy ta'lim hisoblangan aspiranturada ta'lim olish ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchisida magistrlik ilmiy darajasi berilsa, ikkinchi bosqichini tugallagan tadqiqotchi fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'ladi.

Aynan shu tizimdan kelib chiqqan holda Xitoyda ta'lim boshqaruvi amalga oshiriladi. Soxadagi boshqaruv «bir xil daraja, bir xil standartlar» tamoyili asosida olib borilmoqda, ya'ni mexnat jarayonidan ajralgan holda ta'lim

olayotgan yoshlar va mehnat qilish bilan birga faqat kechkurun yoxud sirtidan o'qiyotganlarga bilim berish darajasi bir xildir.

Mamlakat ta'lim boshqaruvi o'z ichiga ma'muriy ta'lim tizimini olib, u 4 bosqichdan iboratdir: markaz, shahar, avtonom hududlar va uездlardir.

Mazkur xududiy bo'linishlar ular tasarrufidagi ta'lim muassasalari boshqaruvini engillashtiradi. «Xitoy Xalq Respublikasining ta'lim tug'risidagi qonuni»da ko'rsatilishicha «Davlat Kengashi va maxalliy xalq xokimiyatlari o'z xududlaridagi boshqaruv tamoyillari asosida ta'lim tizimini boshqaradilar. O'rta va to'liq bo'lmagan o'rta ta'lim muassasalari Davlat Kengashi tasarrufidagi mahalliy xalq xokimiyatlari tomonidan, oliy ta'lim Davlat Kengashi, avtonom hudud, shahar xalq hokimiyatlari tomonidan boshqariladi. Mazkur qonunning 15-bandida aytilishicha «Davlat Kengashidagi ta'limning ma'muriy organlari mamlakatdagi ta'lim sohasini boshqaradilar, umumiy reja asosida ish ko'radilar va uning faoliyatini muvofiqlashtiradilar».

Xitoyda ming yillar davomida shakllanib, bugungi kunga kelib o'z ahamiyatini yo'qotmagan go'zal an'analardan biri ustozni ulug'lashdir. Deyarli barcha Sharq xalqlarida bo'lgani kabi bilim beruvchi har qanday odam ustoz sifatida qadrlanadi. Buyuk Konfutsiy ta'limoti asoslari mujassamlashgan bugungi Xitoy ta'lim tizimida o'qituvchiga bo'lgan e'tibor alohida o'rin tutadi. Xitoy hukumati 1985 yili 10 sentyabr kuni "o'qituvchilar kuni"ni umumxalk bayrami sifatida nishonlashni e'lon qildi, 1993 yili esa, mamlakatda «Xitoy Xalq Respublikasining o'qituvchilar to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun o'qituvchilarning huquq va majburiyatlari, ularga to'lanadigan oylik maosh, maqomi, toifalari, uqituvchini tayyorlash jarayoni, ish faoliyatida rag'batlantirish shartlari, huquqiy mas'uliyatini belgilab beradi. 1998 yili Xitoy hukumati oliy o'quv yurtlariga «Yosh olimlarni rag'batlantirish» rejasini taklif etdi. Mazkur rejaga ko'ra mamlakatdagi va xorijdagi yosh olimlarni Xitoy oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish, ularning moddiy va ma'naviy salohiyatini oshirish ko'zda tutilgan edi. Bugunga kelib 200 nafar turli mamlakatlardan kelgan olimlar Xitoyda professor unvoniga ega bo'lishgan.

Hukumat shuningdek, o'qituvchilarning ijtimoiy mavqeini ko'tarish orqali ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirishga erishmoqda. «O'qituvchilar tug'risida»gi qonunda aytilishicha «o'qituvchilarning o'rtacha ish haqi davlat xizmatchilarining o'rtacha ish haqidan ham bo'lmasligi va doimo o'sib bormog'i kerak». Shuningdek, o'qituvchilarning turmush farovonligini ko'tarish maqsadida esa, Xitoy hukumati 1994 yildan bugungi kunga qadar davlat byudjetidan 10 milliarddan ko'proq AQSh dollarini o'qituvchilarga uy-joy qurilishi uchun sarfladi.

Germaniya Oliy ta'lim tizimi 250 dan ortiq universitetlarni o'z ichiga oladi. Bu oliy o'quv yurtlari va ixtisoslashtirilgan (kasb-hunar) oliy maktablarida asoslanadi. Ular bilan birga pedagogik, kasb-hunar kollejlari bor. Germaniyada universitetlar davlat ixtiyorida hisoblanadi. So'ngi yillarda bir necha xususiy universitetlar ochildi.

Mutaxassislar tayyorlashda universitetlarning roli katta ahamiyatga ega.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim 4 yil davom etadi. Sungi imtixonlar va bitiruv malakaviy ishlari o'qishning 18-oyidan so'ng boshlanadi.

Universitetlarda darslar ma'ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlari tarzida tashkil etiladi.

Germaniyada bitta oliy "doktorlik" ilmiy daraja mavjud.

Germaniya oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoniga ta'lim va tadqiqot ilmiy faoliyatlari ham mujassamlashtirilgan.

Germaniyada o'qituvchilarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi: universitetlarda (birinchi davlat imtixonigacha) va ikki yillik pedagogik amaliyotda (ikkinchi yakuniy davlat imtihongacha). Maktablarning tiplariga qarab bitiruvchilar turli darajadagi o'qituvchilik lavozimiga ega bo'lishi mumkin:

- I darajali o'qituvchi lavozimi (boshlang'ich sinf o'qituvchisi)
- I darajali o'qituvchi lavozimi (maktab, gimnaziyalarning 5 - 10- sinflari o'qituvchisi)
- II darajali o'qituvchi lavozimi (maktab, gimnaziyalarning 11 - 13- sinflari o'qituvchisi)

Universitetda o'qituvchi tayyorlash 3 komponentdan iborat:

1. Maktabda dars beradigan 2 - 3ta o'quv fanini o'rganish,
2. Pedagogik fanlarni o'rganish,
3. Maktabda amaliyotni o'tash (buni 2 yillik amaliyot bilan aralashtirmaslik zarur - u referendariat deyiladi).

2-3ta o'quv fani o'qish o'quv rejasidan va ayrim hollarda talabaning tanlovidan kelib chiqadi.

Pedagogik fanlar sifatida pedagogika, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, umumiy didaktika va xuquq o'qitiladi.

Maktabda amaliyotni o'tash deyarli har kuni amalga oshirilishi mumkin.

4 yillik o'quv jarayonidan so'ng talabalar 1 - Davlat imtixonini topshiradilar. U o'zi o'qigan 3-4 ta mutaxassislik fani va pedagogik fanlar bo'yicha o'tkaziladi (og'zaki yoki yozma tarzda). Bungacha bitiruvchi bitta yozma uy ishini topshirishi zarur bo'ladi.

1 - Davlat imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan talabalar ikki yillik pedagogik amaliyotga - referendariatga yuboriladi. Unda talaba darslarni kuzatadi, o'zi ham mustaqil ravishda dars beradi. Amaliyot yakunida 2 -Davlat imtixonini topshiradilar. U 3 qismdan iborat bo'ladi: yozma uy ishi, 2ta darsni o'tib berish, Og'zaki imtixon.

Germaniyadagi ta'lim mazmuni quyidagi aspektlardan iborat:

- Kompetensiya
- Moderatsiya
- Modul texnologiyasi.

Buyuk Britaniyada o'qituvchilarni tayyorlash Bolonya ta'lim tizimiga ko'ra amalga oshiriladi, ya'ni bunda OUYU bozor talablaridan kelib chiqqan holda kadr tayyorlaydi, bunda davlat nazorati maxsus agentliklar tomonidan olib boriladi.

Bugungi kunda Angliyada o'qituvchilarni tayyorlashda «O'qituvchilarning kasbiy standartlari va ularni tayyorlashga quyiladigan talablar» (Professional

Standards for Qualified Teacher Status and Requirements for Initial Teacher Training) ga qat'iy rioya qilinadi. Ushbu xujjatda 33 ta tayanch standart ko'rsatib berilgan. Ularga ko'ra o'qituvchi:

- informatsion-kommunikatsion texnologiyalar (IKT)ni bilish darajasi bo'yicha test topshirishi;
- IKT savodxonlik darajasidan shaxsiy kasbiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'quvchilarning IKT savodxonligini oshirish yo'llari uchun qulay sharoit yaratishi;
- mutaxassisligiga ko'ra darslar o'tkazishi, bunda ta'limning turli metodlaridan, eng yangi informatsion texnologiyalardan, xususan, Internet-ta'limdan foydalanishi zarur va shart.

Buyuk Britaniyada o'qituvchilarni tayyorlash uzoq muddatli va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Ta'limning dastlabki bosqichidanoq bo'lg'usi o'qituvchida faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar tarbiyalanadi, oldiga qo'yilgan muammoning mohiyatini tushunish, uni o'z bilimi va malakalariga tayangan holda hal qilish o'rgatiladi.

Ochiq universitetda o'qituvchi va tyutorlarni tayyorlash bo'yicha zamonaviy malaka talablari ishlab chiqilgan, bular o'qituvchi va tyutorlarga keyingi faoliyatida muhim yo'nalish berish uchun xizmat qiladi:

- media madaniyat sohasida bilimlarga ega bo'lish;
- elektron didaktik vositalarni loyihalash va ulardan dars jarayonida foydalana bilish malakalariga ega bo'lish;
- o'quv-metodik komplekslar va dasturlar yaratish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- telekommunikatsion va virtual muhitda ishlashga tayyor bo'lish.

Shuningdek, ta'lim vaziri tomonidan "Pedagogik faoliyat boshlash standartlari» tasdiqlangan. «Standartlar» 3 bo'limdan iborat:

1) ta'lim metodikasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va sinfga rahbarlik qilish;

2) ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatini monitoring qilish, baholash, maktabdagi xujjatlarni yurita olish, hisobotlarni yuritish, ta'lim jarayoni uchun mas'uliyatni his qilish;

3) boshqa professional talablar.

Ushbu standartlarda aniq o'quv rejasi ko'rsatilmagan, ya'ni ularda konservatizm yuqori.

Standartda o'qituvchining kompetentligiga qo'yiladigan eng katta va muhim talab sifatida kommunikativ kompetensiya talabi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida mediavositlardan (matbuot, televidenie, kinematograf, radio, Internet) foydalanish o'quvchilarning nutqi, talaffuzi va grammatik bilimlarini mustahkamlashga, tanqidiy mushohada qila olish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi zarur.

Buyuk Britaniyadagita'lim sistemasidagi standartlarning asosiy xususiyati shundaki, unda nafaqat o'qituvchilarning kompetentligiga, balki o'quv muassasalarining ham kompetentligiga talablar qo'yiladi.

3.2. Milliy g'oya turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitishda halqaro tajribaning siyosiy tahlili: Uzbekiston va jaxon.

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad-maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bu tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali biz ta'limda xato va yanglishishlardan, shubhali xulosalardan o'zimizni saqlashimizdan tashqari, ta'lim-tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shaklli va uslublaridan tezroq halos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini etishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M. Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F. Mitteran maktabni "Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch" deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQShda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ko'rishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga tatbiq etilgan. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, axoloqshunoslik, tabiiy fanlar, mexnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyin Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jaxon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Yapon xalqida "Hamma narsa unutilganda ham ta'lim esda qoladi", degan xikmatli gap bor. Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmoqda.

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha yukdan xalos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Integratsiyalashtirilgan o'quv dasturlarining mualliflari barcha yondosh o'quv kurslarini uzoq predmet va g'oya, atrofiga jipslashtirishga harakat qilishadi, bu o'quvchilarga ijodiy tafakkur yurgizishga yordam beradi. Lekin, shunisi borki, bunday uslub hamma vaqt ham ko'zlangan, natijani bermaydi. Chunki, integratsiyalashtirilgan o'quv kurslari mutloq ko'pchilik o'quvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Kingadir u zarur, kingadir keraksiz.

Bu muammoni to'ldirish, uquvchilarning u yoki bu kursga bo'lgan extiyojini to'laroq qondirish uchun maktablar alohida predmetlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar. Masalan, Garbiy Evropa maktablarida 15 foiz o'quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o'rganayotirlar.

Keyingi yillarda AQShda ilmiy bilimlarni chuqurlashtirib o'rgatishni ta'minlash maqsadida integratsiyalashtirilgan kurslarning turli variantlari ishlab chiqilmoqda.

AQSh maktablarida odatda o'quvchilar o'quv yili davomida ikki marta o'zlashtirish tabelni oladilar. Ayrim okruglarda bunday tabellar har bir fan bo'yicha 6 marttagacha beriladi.

Har bir maktab o'quv yili boshlanishidayoq o'zi o'quv tartibini oldindan belgilab oladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 7 sentyabr — o'quv yilining boshlanishi;
- 12 oktyabr — Kolumb kuni munosabati bilan bayram;
- 21 oktyabr — o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlovchi test sinovlari;
- 10 noyabr — insholar konkursi;
- 22-27 noyabr — dastlabki ta'tillar;
- 2 dekabr — kollejga kirish imtixonlarining birinchi bosqichi;
- 22 dekabr — Rojdestvo ta'tili;
- 13 yanvar — kollejga kirish imtixonlarining ikkinchi bosqichi;
- 26 yanvar — o'quv yili ikkinchi yarmiga o'tish imtixonlari;
- 24 fevral — yaxshi uquvchilarni aniqlovchi milliy imtihonlar;
- 2 mart — kollejlarga kirish imtixonlarining uchinchi boskichi;
- 5 aprel — 3-davraga o'tish imtixonlari;
- 12-20 aprel — baxor ta'tillari;
- 4 iyun — kollejlarga kirish imtixonlarining to'rtinchi bosqichi;
- 30 may — Xotira kuni;
- 12 iyun — bitirish kechasi;
- 20 iyun — yozgi ta'tilga chiqish kuni.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Topshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Niderlandiya maktablarida o'rta ta'lim:

- umumiy o'rta ta'lim;
- umumiy ilmiy o'rta ta'lim;
- hunar-texnika ta'limi va xakazolardan tashkil topgan.

O'z navbatida umumiy o'rta ta'lim o'qish muddati 4 yil bo'lgan o'rta va o'quv muddati 5 yil hisoblangan oliy bosqichga bo'linadi.

Tayyorlov bosqichi hisoblangan ilmiy o'rta ta'lim ham ikki ko'rinishga ega: gimnaziya va atensum deb ataladigan tipga bo'linadi. Har ikki ko'rinishda ham o'qish muddati 6 yil. Tayyorlov ilmiy urta ta'lim oliy ilmiy o'quv yurtlariga kiruvchilarni etishtirib chiqaradi.

Hozir Niderlandiyada mamlakat umumiy aholisining 40 foizini 25 yoshgacha bolgan yoshlar tashkil etadi. Mamlakat yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishi ularni ma'lumotli, kasb-korli qilishga, yoshlarni mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faolroq ishtirok etishini ta'minlash, ularning ko'ngilli dam olishlarini yaxshiroq tashkil etishni ta'minlashga qaratilgan.

Keyingi paytlarda mamlakatda yoshlarning ijtimoiy istiqbollari keskin o'zgardi. Ularda hayotiy jarayonlarga qiziqish ancha kuchaydi, shuningdek ular o'z muammolarini o'zlari mustaqil hal qilishga tobora intilmoqdalar.

Yoshlar boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari singari jamiyatdagi o'z o'rnini toppish va uni mustahkamlash uchun kurashmoqdalar.

Yoshlar siyosatiga oid, davlat ahamiyatiga molik masalalarni faravonlik, sog'liqni saqlash va madaniyat ishlari vazirligi hal etadi. Bu vazirlik boshqa vazirliklar bilan xamjihatlikda yoshlar extiyojlarini, shu jumladan ularni ish bilan, turar joy bilan ta'minlash, moddiy farovonligini yaxshilash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish kabi masalalarni muvofiqlashtiradi, hal etadi.

Katta avlodning, boshqaruv ishidagi mansabdorlarning faoliyatida eng ko'zga tashlangan soha yoshlarning ishsizligini tugatish, ularga keng ko'lamdagi yordamlar uyushtirishga sidqidildan yondashayotganligidir. Niderlandiyada yoshlar ishlari bo'yicha federatsiyasi mavjud bo'lib uning vazifasi hukumatda, parlamentda yoshlar manfaatini va ularning huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Niderlandiyada qariyb 4 mln. yoshlar kunduzgi o'quvlar bilan qamrab olingan. Mamlakatda majburiy ta'lim pulsiz, katta yoshlilar maktablari va oliygohlarida pullikdir.

Ba'zan maktablarda ota-onalar o'quv tarbiya ishlarini amalga oshirishga o'z mablag'lari bilan yordamlashishga hoxish bildiradilar. Bunday istaklar qabul qilinadi. Barcha o'qituvchilar va tarbiyachilar maoshlari davlat tomonidan ta'minlanadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlar:

— maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish;

— o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish;

— tarbiyaning yangi formalarida — o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish;

— maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;

— maktabni mexnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish;

— tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif uquvchilar uchun) rivojlantirish;

— yangi-yangi o'quv texnik vositalarini ta'limdagi salmoqini oshirish, o'qituvchilar korpusida kompyuter ta'limini yo'lga qo'yish;

— sinf-dars tizimlarini zamonaviylashtirish, o'quvchilar mustaqil ishlashlarini yo'lga qo'yish;

— pedagogik g'oyalarini amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment-tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Respublikamizda o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda targ'ibot ishlarining institutsional tizimi, uning ijobiy jixatlaridan ta'lim jarayonida foydalanishdan iborat. AQShda

fuqaro va yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash masalasi ko'ndalang qilib qo'yilgan. Amerikaliklarga qanday g'oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Fuqaro va yoshlar tarbiyasi quyidagi g'oyaviy ustunlarga tayanadi. AQSh fuqarolari Konstitutsiyani, Amerika davlatchiligining asoslari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirish xaqida tinimsiz qayg'uradilar. Yoshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi. AQShning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o'zib ketganligining sababi shundaki, avvalo Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jixati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat etishdir. Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini "o'rtamiyona odam" deb biladigan yoxud "men bir oddiy odam" deb gapiradigan kishilar nixoyatda kam uchraydi.

Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina erishadi. Har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Xuddi ana shu "Amerika orzusi" kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Umuman, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan. Albatta, "AQSh da bu borada muammo yo'q ekan" degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyolilari tomonidan yangi mafkura - "liberal - natsionalizm" mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jixatdan bo'linib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruxlarni "AQSh - millatlar hamjamiyatidir" g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak, gap AQShda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida fikr bildirilgan.

Yaponiyada milliy mafkura tarbiyasi. Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashkari shaxs sifatida xam shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi "axloqiy tarbiya" tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy xujjatlarda "axloqiy tarbiya" tizimi quyidagicha nomlanadi:

- 1) "xarakterni shakllantirishga yunaltirilgan ta'lim";

2) “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”;

3) “fuqaroliq axloqi asoslarini tarbiyalash”¹.

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o‘taydi. Undan qudratli goyaviy ta‘sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma‘naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan. Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) “Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe‘l-atvorini o‘rganish joizdir” degan edi. Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo‘lib chiqqan Yaponiya mamlakatining 30-40 yilda ishlab chiqarish xajmi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘ringa chiqib olgani ko‘pchilikning xayratini uyg‘otadi. “Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tganligini qanday tushuntirish mumkin?”.

Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: “Salohiyat

insonlarda yashirin”. Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko‘ra, insondan qimmatroq boylik yo‘q. Yapon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlar qaror toptiriladi: Mexnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan qanoatlanmay, o‘z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhliy birdamlikni tarbiyalashga aloxida e‘tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug‘i ham, mag‘lubiyati ham guruxning har bir a‘zosiga bog‘liq ekanligi haqidagi g‘oya singdiriladi, o‘z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas‘uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko‘rgan fuqaro jamoa muammolarini o‘zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhliy birdamlik (yaponchada “aydagarasyugi”) tufayli mamlakat misli ko‘rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mexnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko‘tarilishida “axloqiy tarbiya” tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g‘oyalar singdiriladi:

1 .“Faqat tirishqoqlik va mexnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin”.

2.“O‘z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo‘lmaysan”

Bu kabi g‘oyalar ta‘sirida ulg‘aygan yapon kishisi o‘zining barcha xarakterlarini quyidagi mantiqqa bo‘ysundiradi: “Bor imkoniyatlaringni ishga sol!”.

Shunday qilib, davlat o‘z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g‘ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o‘rnak bo‘la oladi. “Axloqiy tarbiya” natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini

¹Эргашев И. ва бошқ. Миллий истиклол гоёси: Ўзбекистан Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. -Т.: Академия, 2005, - 302 б.

shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga xiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon extiyohlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan xech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar turkumidagi (Odobnoma, Vatan tuYFusi, Milliy istiqlol G'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlarni o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanishning axamiyati nimada?

2. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim qanday jarayon sifatida e'tirof qilingan?

3. Yaponlarda, maktabga qanday ta'rif beriladi?

4. Taniqli siyosatchilardan kimlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb aytishadi?

4. Niderlandiyada qariyb qancha yoshlar kunduzgi o'quvlar bilan qamrab olingan?

5. Amerikada fuqaro va yoshlar tarbiyasi qanday g'oyaviy ustunlarga tayanadi?

6. Hozirgi kunda AQSHning ziyolilari tomonidan qanday yangi yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rta tashlanmoqda?

7. Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning qanday eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi?

Topshiriq

1. Tinglovchilar qaysi mamlakatni ta'lim tarbiyani mafkurasini O'zbekistonda amaliyotga tatbiq etish mumkin.

2. Chet el ta'lim tarbiyasi haqida o'zingizni fikringiz esse shaklda yozib keling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: Uzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005 y.

2. Otamurodov Globallashuv va milliy ma'naviy xafvsizliklik. -T.: "Uzbekiston", 2013 y.

3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izoxli luFati. Q., Nazarov tahriri ostida. -T.: Ma'naviyat, 2009 y.

4. Muxtorov A., Sulstonov T., Mustafakulov Sh.I., asosida o'qitish.

Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 y.

Xorij manbalari:

1. Solderblom N. Das Wetter des Gottesglaube. Berlin, S. 162.

2. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy -Schmidt Number: S- 3277. On-line since: 24th January, 1995 y.

3. Michael Freeden. Ideology: A Very Short Introduction (Oxford, 2003)

4. The geopolitics reader .Edited by Gearoid O Tuathail, Simon Dalby and Paul Routledge. - London and New York. Routledge Taylor & Francis e- library, 2003 y.

5. David A. Deese. Globalization: Causes and Effects. -Boston College, USA Ashgate, 2012 y.

MUNDARIJA

Kirish	3
Milliy g'oya turkumidagi fanlarni dasturning xususiyatlari va uning tadbiri bo'yicha uslubiy tavsiyalar	4
Milliy g'oya turkumidagi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning dars jarayonidagi o'rni va ahamiyati	5
Innovatsion pedagogik texnologiyalarni darsda foydalanish	5
Milliy g'oya turkumidagi fanlarni o'qitishda «Aqliy hujum» usuli	6
Milliy g'oya turkumidagi fanlarni darslarida kichik guruhlarda ishlash	6
Milliy g'oya turkumidagi fanlarni keys stadi uslubidan foydalanish	7
Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarga oid yangi adabiyotlar tahlili	9
Milliy g'oya turkumidagi fanlarni innovatsion o'qitilishiga doir xorijiy tajribalar	12
Adabiyotlar	26

RAXIMOVA D.B.

**MILLIY G'OYA TURKUMIDAGI FANLARNI O'QITISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 02.03.2021 y.
Bosishga ruxsat berildi: 06.03.2021 y
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
« Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.
1,75 bosma taboqAdadi:50nusxa.
Buyurtma № 80/20

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish hududiy markazi
bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Boysunqur ko'chasi 3-uy.